

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA ERGATIV FE'LLARNING VALENTLIK MASALALARI

*Qarshiyeva Shoxista,
SamDChTI mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilida ergativ fe'llarning valentlik xususiyatlariga oid bir nechta nazariyalar keltirilgan bo'lib, ular misollar orqali tahlil qilinadi. Ergativ fe'llarning valentlik masalalariga oid savollar ko'rib chiqiladi va tilshunoslar tomonidan keltirilgan fikrlar bilan isbotlanadi.

Kalit so'zlar: ergativ fe'llar, tranzitiv konstruksiya, intransitiv konstruksiya, valentlik, argument.

Ingliz tilida ergativ fe'llar o'zining tranzitiv (o'timli) va intransitiv (o'timsiz) shakllar o'rtasida almashinish qobiliyati tufayli o'ziga xos hisoblanadi. Bu fe'llar argument tuzilmasini o'zgartira oladi, bu esa valentlikni –fe'l bilan bog'lanadigan argumentlar sonini aniqlash va tahlil qilishda tilshunoslar uchun qiyinchilik tug'diradi. Valentlik masalasi sintaksis jihatdan tahlilda juda muhim hisoblanadi, chunki u fe'llarning gapdagi boshqa elementlar bilan o'zaro ta'sir qilishini belgilaydi. Ergativ fe'llar holatida valentlik sezilarni darajada o'zgarishi mumkin, bu esa o'z o'rnida bunday turdagi fe'llarning ingliz tilidagi funksiyalarini qanday tushunish kerakligi haqida muhim savollarni tug'diradi. Ushbu maqolada ergativ fe'llarning murakkabliklari, ularning valentligi bilan bog'liq asosiy muammolar va turli tilshunoslar bu masalani qanday hal qilgani muhokama qilinadi.

Ergativ fe'llarni ko'plab tilshunoslar tahlil qilib kelishadi va natijada ularning o'ziga xos xususiyatlari turli xil nazariy doiralarni keltirib chiqaradi. Bu turdagi fe'llar intransitiv konstruksiyadagi ega tranzitiv konstruksiyada to'ldiruvchi bo'lib keladigan shaklga amal qiladi. Masalan, *“The door opened”* (*“Eshik ochildi”*) jumlasida *“The door”* ega bo'lsa, *“Anvar opened the door”* (*“Anvar eshikni ochdi”*) jumlasida *“the door”* to'ldiruvchi bo'lib keladi. Bu o'zgarish subyekt-obyekt munosabatlari haqidagi an'anaviy tushunchalarni murakkablashtiradi va valentlikka oid an'anaviy qarashlarga zid keladi.

Tilshunos Devid Dautining proto-rollar va leksik dekompozitsiya (ajralish) haqidagi ishlari, jumladan, ergativ fe'llarning argument tuzilmalari bilan bog'liq tushunchalarni shakllashtirishda muhim asos bo'ldi. D. Dauti fe'llar sintaktik va semantik xususiyatlarini aks ettiruvchi bir nechta sodd elementlarga bo'linishi mumkinligini aytib o'tdi. Unga ko'ra, ergativ fe'llar argument tuzilmalari o'rtasida almashinish jarayoni bo'lishi mumkinligi sababli ularning valentligi o'zgaradi. Intransitiv konstruksiyada (*The vase broke*) fe'l faqat bitta argumentni talab qiladi (*The vase*), ammo tranzitiv konstruksiyada (*Anvar broke the vase*) esa ikkita argumentni talab qiladi (*Anvar va the vase*). Tilshunos Dautining nazariyasi esa bu almashinuvning qanday va nima uchun sodir bo'lishini tushuntirishga yordam beradi [Dauti, 1979: 120 b.]

M.K. Xollidey ergativ fe'llarni funksional nuqtai nazardan yondashib, o'zining tizimli funksional grammatikasi doirasida valentlik va tranzitivlik o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan. Xollidey valentlik faqat sintaktik masala emas, balki gap ichidagi ishtirokchilarning (subyekt va obyekt) qanday funksional rol o'ynashini aks ettiradi deb hisoblaydi. Ergativ konstruksiyalarda ega va obyekt (to'ldiruvchi) rollarini almashtirishi mumkin, bu esa bevosita fe'lning valentligiga ta'sir qiladi. Masalan, *“The window opened”* jumlasida ega bu harakatni qabul qilgan narsa (ishtirokchi), *“Anvar opened the window”* jumlasida esa subyekt agentga (harakatni amalga oshiruvchi shaxs) aylanishi mumkin, obyekt esa ishtirokchi bo'lib qoladi. Bu valentlikdagi o'zgarish sintaktik va funksional o'zgarishlarni aks ettiradi. [Xollidey, 1985: 101 b.]

Ergativ fe'llarning asosiy muammolaridan biri ularning valentligidagi noaniqlikdir. Intransitiv konstruksiyada ergativ fe'lning valentligi bitta bo'lishi mumkin. Lekin tranzitiv konstruksiyada valentlik ikkita bo'ladi, masalan, *“Lola closed the door”* (*“Lola eshikni yopdi”*) jumlasida fe'l ikkita ishtirokchini qabul qiladi (*Lola va eshik*). Bu valentlikning o'zgaruvchanligi

ergativ fe'llar uchun valentlik qanday aniqlanishi kerakligi haqidagi savollarni tug'diradi. Biz fe'llning valentligini moslashuvchan deb hisoblashimiz kerakmi yoki har bir konstruksiyani fe'llning har xil valentlikka ega alohida holati deb qabul qilishimiz kerakmi?

Sintaktik va semantik interfeys haqida to'xtaladigan bo'lsak, shuni aytish joizki, ergativ fe'llarni o'rganishda yana bir muhim masala valentlikni aniqlashda sintaksis va semantika o'rtasidagi munosabat hisoblanadi. Ko'pchilik tilshunoslar fe'llning valentligi faqat gapdagi argumentlar soni bilan aniqlanishini yoki chuqurroq semantik rollarni ham o'z ichiga olishi kerakmi, degan masalada bahslashadilar. Levin [1993] va Douthett [1979] larning fikriga ko'ra, valentlik nafaqat gapning sintaksisini, balki fe'l tayinlaydigan tematik rollarni ham aks ettiradi. Masalan, *"The door opened"* jumlasida *"The door"* semantik jihatdan ishtirokchi bo'lsa (harakatni boshidan kechiruvchi narsa), *"I opened the door"* jumlasida *"I"* agent (harakatni amalga oshiruvchi), *"the door"* esa harakatni boshidan kechiruvchi ishtirokchi bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadiki, bir fe'l argumentlarining rollariga qarab turli valentlikka ega bo'lishi mumkin [Levin, 1993: 45 b.; Douthett, 1979: 110 b.].

Valentlik barcha tillarda bir xil xususiyatlarga ega emas va ergativ konstruksiyalar boshqa tillarda sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Masalan, fransuz tilida ergativ fe'llar ingliz tiliga nisbatan boshqacha munosabatga kirishadi. Beylin [1995] ergativ konstruksiyalardagi tilshunoslik farqlarini o'rgandi va shuni ta'kidladiki, fransuz tili ergativ strukturaga ega bo'lsada, ba'zan fe'llarning valentlik andozalari boshqacha bo'lishi mumkin. Bunday valentlik prinsiplari ergativ konstruksiyalarda universal yoki ma'lum bir tillarga xosmi degan savollarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ingliz tilida ergativ fe'llar o'ziga xos bo'lib, ularni tranzitiv (to'ldiruvchi bilan) yoki intranzitiv (to'ldiruvchisiz) shaklda ishlatish mumkin, bunda har ikkala shaklda o'xshash ma'no ifodalanadi. D.Douthett, M.K.Xollidey, B.Levin kabi tilshunoslar ushbu fe'llarning rol va argument tuzilmalarini o'rganib, ergativ fe'llarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatgan. Douthett va Levin ergativ fe'llarning an'anaviy valentlik qoidalarini qanday murakkablashtirishini tahlil qildilar, Xollidey esa funksional grammatika nuqtai nazaridan ularning sintaktik va funksional munosabatlarini tadqiq qildi.

Fikrimiz so'ngida shuni ta'kidlash joizki, ergativ fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari ularning qanday qilib turli kontekstlarga moslashishini namoyish etadi. Bu fe'llar ingliz tilida agent va harakatni ifodalashda o'ziga xos valentlik moslashuvchanligini ko'rsatadi. Ergativ fe'llarning rol almashish qobiliyati valentlikni faqat strukturaviy element emas, balki kontekst va maqsadga qarab o'zgaruvchan funksional element sifatida tushunishimizni talab qiladi. Ergativ fe'llarning o'ziga xos sintaktik va semantik o'zgarishlari ularning tilning ifodaviy imkoniyatlarini boyitishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beylin, D. (1995). *Cross-Linguistic Perspectives on Ergative Constructions*. Cambridge University Press, pp. 45-78.
2. Dowty, D. (1979). *Proto-Roles and Lexical Decomposition in English Syntax*. The MIT Press, pp. 74-102.
3. Halliday, M.A.K. (1985). *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold, pp. 148-162.
4. Levin, B. (1993). *English Verb Classes and Alternations: A Preliminary Investigation*. University of Chicago Press, pp. 27-56.
5. Karshieva, S. K. kizi. (2024). The Concept of pragmatics in linguistics. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(2), 544–548. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/3427>
6. Shokhista, K. (2024). National-Cultural Specificity of Phraseological Units. *International Journal of Formal Education*, 3(3), 177–180. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2354>

7. Qarshiyeva , S. . (2024). Ingliz tilida ergativ fe'llarning o'rganish masalalari. *Молодые ученые*, 2(5), 30–32. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yo/article/view/27494>
8. Шомуродова, Ш. Ж. (2017). КОНТЕКСТУАЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ЗНАЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ. Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. 31 окт.– 3 нояб. 2017 г./Челяб. гос. ин-т культуры; сост. ЕВ Швачко.–Челябинск: ЧГИК, 2017.–394 с. ISBN 978-5-94839-629-3.
9. Шомуродова, Ш. Ж., Назарова, Н. Б., & Акрамова, К. (2020). Barriers of teaching foreign languages in junior classes. *Евразийский научный журнал*, (6), 63-65.
10. JAHONOVNA, S. S., FURQATOVNA, S. Y., & QIZI, X. Z. X. Make Use of Interactive Forms and Methods in Teaching a Foreign Language. *JournalNX*, 6(11), 260-263.
11. Шомуродова, Ш. (2018). Роль инновационных технологий в широкомасштабной реформации образовательного процесса. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 3(2 (67)), 30-33.
12. Jahonovna, S. S. (2022). FEATURES OF SEMANTIC AND STYLISTIC TRANSFORMATIONS OF STABLE WORD COMBINATIONS. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).